



THE SYSTEM OF SOCIAL PROTECTION OF THE POPULATION AS A SOCIAL INSTITUTION: A COMPARATIVE ANALYSIS OF FOREIGN EXPERIENCE AND THE UZBEKISTAN MODEL

Mavludakhon Khodjayeva

*Independent researcher of the Academy
of Public Policy and Administration
under the President of the Republic of Uzbekistan
Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: social protection, social institution, welfare state, Bismarck model, Nordic model, productivist welfare, institutional approach, poverty reduction, comparative analysis.

Received: 13.05.26

Accepted: 14.05.26

Published: 15.05.26

Abstract: This article provides a comparative analysis of the experiences of developed and developing countries in the field of social protection of the population, examining the system as a complex social institution. The study analyzes Germany's Bismarck model (conservative-corporatist), Sweden's Nordic (social-democratic) model, South Korea's "productivist welfare" model, and China's targeted poverty reduction experience. Based on G. Esping-Andersen's welfare regime typology, D. North's institutional theory, and A. Sen's capability approach, the significance of these models for improving Uzbekistan's social protection system is revealed.

AHOLINI IJTIMOIIY HIMOYA QILISH TIZIMI IJTIMOIIY INSTITUT SIFATIDA: XORIJIY TAJRIBA VA O'ZBEKISTON MODELI QIYOSIY TAHLILI

Mavludaxon Xodjayeva

*O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi
akademiyasi mustaqil izlanuvchisi
Toshkent, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: ijtimoiy himoya, ijtimoiy institut, farovonlik davlati, Bismarck modeli, nordik model, ishlab chiqaruvchi farovonlik,

Annotatsiya: Maqolada rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarning aholini ijtimoiy himoya qilish sohasidagi tajribasi qiyosiy

institutsional yondashuv, kambag'allikni qisqartirish, qiyosiy tahlil.

tahlil qilinib, mazkur tizimga murakkab ijtimoiy institut sifatida yondashiladi. Tadqiqotda Germaniyaning Bismark modeli (konservativ-korporativ), Shvesiyaning nordik (sotsial-demokratik) modeli, Janubiy Koreyaning "ishlab chiqaruvchi farovonlik" modeli va Xitoyning manzilli kambag'allikka qarshi kurash tajribasi o'rganilgan. G. Esping-Andersenning farovonlik rejimlari tipologiyasi, D. Nortning institutsional nazariyasi va A. Senning imkoniyatlar yondashuvi asosida ushbu modellarning O'zbekiston ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish uchun ahamiyati ochib berilgan.

СИСТЕМА СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ НАСЕЛЕНИЯ КАК СОЦИАЛЬНЫЙ ИНСТИТУТ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА И МОДЕЛИ УЗБЕКИСТАНА

Мавлудахон Ходжаева

*Независимый соискатель Академии государственной политики и управления при Президенте Республики Узбекистан
Ташкент, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: социальная защита, социальный институт, государство всеобщего благосостояния, модель Бисмарка, нордическая модель, продуктивное благосостояние, институциональный подход, сокращение бедности, сравнительный анализ.

Аннотация: В статье проводится сравнительный анализ опыта развитых и развивающихся государств в сфере социальной защиты населения, при этом данная система рассматривается как сложный социальный институт. В исследовании изучены модель Бисмарка (консервативно-корпоративная) Германии, нордическая (социал-демократическая) модель Швеции, модель "продуктивного благосостояния" Южной Кореи и опыт адресной борьбы с бедностью Китая. На основе типологии режимов благосостояния Г. Эспинг-Андерсена, институциональной теории Д. Норта и подхода возможностей А. Сена раскрыто значение данных моделей для совершенствования системы социальной защиты Узбекистана.

Kirish. Bugungi kunda global iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlar, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi hamda demografik jarayonlarning transformatsiyasi sharoitida aholini ijtimoiy

himoya qilish tizimini takomillashtirish, uning samaradorligi va manzilliligini oshirish davlat siyosatining eng dolzarb, ayni paytda eng murakkab masalalaridan biri hisoblanadi. Jamiyatning barqaror rivojlanishi, aholi farovonligini ta'minlash hamda ijtimoiy adolat tamoyillarini qaror toptirish bevosita ijtimoiy himoya tizimining institutsional yetukligiga bog'liq. Ijtimoiy himoya tizimi shunchaki moddiy yordam ko'rsatish mexanizmi emas, balki jamiyat a'zolarining xavfsizligini ta'minlovchi, ularning ijtimoiy faolligini rag'batlantiruvchi va inson kapitalini rivojlantiruvchi yirik ijtimoiy institutdir. Har bir davlat o'zining tarixiy taraqqiyot yo'li, iqtisodiy imkoniyatlari, madaniy qadriyatlari va ijtimoiy-siyosiy ustuvorliklaridan kelib chiqqan holda ijtimoiy himoyaning o'ziga xos modelini shakllantirgan va rivojlantirib kelmoqda.

Xususan, Yevropa davlatlarining an'anaviy modellari (Germaniya, Shvetsiya), Osiyo mamlakatlarining jadal iqtisodiy o'sish bilan uyg'unlashgan yondashuvlari (Janubiy Koreya, Xitoy) o'ziga xos muvaffaqiyatli tajribalarni namoyon etadi. Rivojlangan va tez sur'atlarda rivojlanayotgan davlatlar tajribasini chuqur ilmiy-sotsiologik o'rganish, qiyosiy tahlil qilish hamda undan tegishli saboqlar chiqarish "Yangi O'zbekiston" sharoitida ijtimoiy davlat qurish yo'lida muhim qadam bo'lib xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlatning "ijtimoiy davlat" sifatidagi maqomi mustahkamlangani hamda "Kambag'allikdan farovonlik sari" kabi strategik dasturlarning qabul qilinishi ijtimoiy himoya tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarishni talab etmoqda. Bunday o'tish davrida xorijiy modellarning tashkiliy-institutsional mexanizmlarini tahlil qilish, ularning yutuq va kamchiliklarini xolisona baholash O'zbekiston ijtimoiy himoya tizimini yanada takomillashtirishda ulkan ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi – rivojlangan (Germaniya, Shvetsiya) va rivojlanayotgan (Janubiy Koreya, Xitoy) davlatlarning ijtimoiy himoya sohasidagi yetakchi tajribalarini qiyosiy-sotsiologik, xususan, institutsional jihatdan chuqur tahlil qilish hamda mahalliy an'analar (mahalla instituti) va zamonaviy talablarni o'zida mujassam etgan O'zbekiston ijtimoiy himoya modeli uchun ilmiy asoslangan tavsiyalar, strategik yechimlar ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyotlar sharxi. Ijtimoiy himoya tizimlarini ilmiy-nazariy jihatdan o'rganish, ularni tipologiyalashtirish va institutsional asoslarini tahlil qilish sotsiologiya, siyosatshunoslik va iqtisodiyot fanlarida keng ko'lamda tadqiq etilgan. Xususan, g'arbiy tadqiqot an'alarida farovonlik davlati (welfare state) modellari bo'yicha fundamental yondashuvlar yaratilgan. Daniyalik yirik olim G. Esping-Andersen o'zining mashhur "Farovonlik kapitalizmining uchta dunyosi" (1990) asarida ijtimoiy davlatlarning uchta asosiy tipologiyasini, ya'ni: liberal (bozor tamoyillariga tayanuvchi), konservativ (korporativ-Bismark) va sotsial-demokratik (keng

qamrovli-nordik) rejimlarni ishlab chiqqan [1]. Bu tipologiya bugungi kungacha ijtimoiy himoya tizimlarini qiyoslashda eng nufuzli metodologik asoslardan biri hisoblanadi.

Shuningdek, institutsional yondashuv ijtimoiy himoya mexanizmlarini anglashda muhim o‘rin tutadi. Taniqli iqtisodchi, Nobel mukofoti sovrindori D. Nort institutlarni jamiyatdagi insonlar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi “o‘yin qoidalari” sifatida ta’riflagan [2]. Uning ta’kidlashicha, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlar samaradorligi bevosita rasmiy (qonunchilik bazasi, hukumat qarorlari, byurokratik mexanizmlar) va norasmiy (milliy an’analar, odatlar, qadriyatlar) institutlarning qay darajada muvofiqlashganiga bog‘liq. Ijtimoiy himoya tizimini sotsiologik nuqtai nazardan tahlil qilishda esa T. Parsonsning struktural-funksional nazariyasi alohida ajralib turadi. U ijtimoiy institutlarning jamiyat yaxlitligi, qadriyatlar saqlanishi va tizimli barqarorlikni ta’minlashdagi funksiyalarini chuqur ochib bergan [3]. O‘zbekiston sharoitida “mahalla” kabi o‘ziga xos institutning roliga baho berishda ushbu funksional yondashuv katta ahamiyatga ega.

Bu an’anaviy yondashuvlardan tashqari, ijtimoiy himoyaning mazmun-mohiyati zamonaviy tadqiqotlarda yanada kengaytirilmoqda. Iqtisodchi A. Sen o‘zining “Imkoniyatlar nazariyasi”da (Capability Approach) ta’kidlashicha, qashshoqlik faqat daromadsizlik emas, balki “asosiy imkoniyatlardan mahrum bo‘lish”dir [4]. Shunga ko‘ra, u ijtimoiy himoyaning bosh maqsadi faqatgina moddiy nafaqa yoki yordam ko‘rsatish bilan cheklanib qolmasligi, balki insonlarning o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi, ta’lim olishi, sog‘lig‘ini saqlashi uchun keng shart-sharoitlar yaratishdan iborat ekanligini ilgari suradi. Bu yondashuv Osiyo mamlakatlari, jumladan, Janubiy Koreyaning “ishlab chiqaruvchi farovonlik” tajribasida yaqqol o‘z aksini topgan bo‘lib, H. J. Kvon va S. K. Kim kabi tadqiqotchilar tomonidan uning iqtisodiy o‘rish va inson kapitali rivojiga ta’siri isbotlangan [5, 6]. Shu o‘rinda, taniqli sotsiolog E. Giddens o‘zining “Uchinchi yo‘l” konsepsiyasida an’anaviy passiv yordam tizimlarini tanqid qilib, zamonaviy davlatlarning vazifasini passiv qayta taqsimlashdan uzoqlashib, faol ravishda “ijtimoiy sarmoya” strategiyasiga, xususan, ta’lim va malaka oshirishga e’tibor qaratishga o‘tish zarurati bilan asoslab beradi [7]. Qolaversa, Xitoyning qashshoqlikka qarshi kurashdagi yutuqlari (Dibao dasturi) haqida professor Chin Gaoning izlanishlari ham mazkur tadqiqot yo‘nalishida muhim nazariy manba hisoblanadi [8]. Ushbu ilg‘or g‘oyalar hamda turli yo‘nalishdagi xorijiy va mahalliy ilmiy qarashlarni umumlashtirish, tadqiqotning metodologik asosini boyitishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotning metodologik asosini sotsiologiya, siyosatshunoslik va iqtisodiyot fanlarida keng qo‘llaniladigan, ijtimoiy muammolarni har tomonlama va tizimli o‘rganish imkonini beruvchi bir nechta ilmiy yondashuvlar tashkil etadi.

Tadqiqot obyekti bo‘lmish aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining ko‘p qirrali va murakkab ijtimoiy institut sifatidagi tabiatini ochib berish maqsadida qiyosiy-institutsional, struktural-funksional hamda tahliliy metodlardan unumli foydalanildi.

Birinchiidan, tadqiqotda asosiy usul sifatida qiyosiy tahlil (taqqoslash) usuli qo‘llanilgan bo‘lib, u orqali turli madaniy, tarixiy va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda shakllangan ijtimoiy himoya modellari o‘zaro qiyosiy tahlil qilindi. Ushbu yondashuv yordamida G. Esping-Andersenning farovonlik rejimlari tipologiyasiga tayangan holda, Germaniyaning Bismark (konservativ-korporativ) modeli va Shvetsiyaning nordik (sotsial-demokratik) modellarining o‘ziga xos xususiyatlari, yutuq va kamchiliklari aniqlashtirildi. Qiyosiy tahlil nafaqat G‘arbning an’anaviy modellarini, balki Osiyo mintaqasidagi rivojlanayotgan davlatlar – Janubiy Koreya va Xitoy tajribasini ham qamrab oldi. Bu usul yordamida mazkur davlatlardagi ijtimoiy himoya tizimini moliyalashtirish manbalari (sug‘urta badallari, soliqlar yoki budjet mablag‘lari), tizimning qamrov darajasi (universal yoki manzilli) hamda xizmatlar ko‘rsatishda davlatning ishtiroki darajasi o‘zaro solishtirilib, umumiy qonuniyatlar va farqli jihatlar ajratib ko‘rsatildi.

Ikkinchiidan, muammoni o‘rganishda institutsional yondashuv muhim metodologik vosita bo‘lib xizmat qildi. D. Nortning institutsional nazariyasi doirasida ijtimoiy himoya tizimi jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni tartibga soluvchi “o‘yin qoidalari” (rasmiy va norasmiy institutlar) tizimi sifatida o‘rganildi. Ayniqsa, mazkur yondashuv O‘zbekiston ijtimoiy himoya modelining noyob xususiyatlarini yoritishda kalit vazifasini bajardi. O‘zbekiston sharoitida “mahalla” instituti o‘zida ham norasmiy (milliy qadriyatlar, urf-odatlar, qo‘shnichilik munosabatlari, hashar va jamoaviy hamjihatlik), ham rasmiy (qonunchilik hujjatlari bilan mustahkamlangan vakolatlar, hududlarda KPI asosida ishlaydigan “mahalla yettiligi”) institutlarning xususiyatlarini yaxlit mujassam etgani ilmiy jihatdan asoslandi. Institutsional tahlil orqali ushbu rasmiy va norasmiy me‘yorlarning o‘zaro integratsiyasi qanday qilib ijtimoiy yordamning manzilliligini va ijtimoiy adolatni mahalliy darajada ta‘minlashga xizmat qilishi chuqur tahlil qilindi.

Uchinchiidan, tadqiqotda jamiyatni yaxlit tizim sifatida ko‘ruvchi struktural-funksional yondashuvdan (T. Parsons) unumli foydalanildi. Mazkur yondashuv orqali ijtimoiy himoya tizimi butun ijtimoiy organizmning barqarorligini ta‘minlovchi va ijtimoiy ziddiyatlarni yumshatuvchi eng muhim tarkibiy element sifatida talqin etildi. Tizimdagi har bir bo‘g‘inning – makro darajadagi davlat organlarining (masalan, Ijtimoiy himoya milliy agentligi), ijtimoiy sug‘urta jamg‘armalarining hamda mikro darajadagi fuqarolik jamiyati institutlarining jamiyat yaxlitligini saqlashdagi o‘ziga xos funksiyalari yoritib berildi. Ushbu metodologik asos xorijiy modellarning

qaysi funksional elementlari (masalan, Germaniyaning “kasallanish fondlari” yoxud Janubiy Koreyaning “Saemaul Undong” harakati) O‘zbekiston amaliyotida samarali ishlashi mumkinligini sotsiologik jihatdan baholash imkonini berdi.

To‘rtinchidan, ish jarayonida konseptual nazariyalarga tayangan holda tahliliy va aksiologik yondashuv amaliyotga tatbiq etildi. A. Senning “Imkoniyatlar nazariyasi” hamda E. Giddensning “Uchinchi yo‘l” konsepsiyasi asosida ijtimoiy himoya tizimining tub maqsadi tahlil qilindi. Bu usul yordamida zamonaviy ijtimoiy davlatning vazifasi faqatgina ehtiyojmand qatlamlarga passiv moddiy yordam tarqatish emas, balki jamiyatda “ijtimoiy sarmoya” yaratish, insonlarning o‘z salohiyatini to‘laqonli ro‘yobga chiqarishi uchun faol imkoniyatlar (ta‘lim, malaka oshirish, bandlikni ta‘minlash) maydonini shakllantirish ekanligi ko‘rsatib o‘tildi. Aynan shu tahliliy yondashuv orqali Janubiy Koreyaning “ishlab chiqaruvchi farovonlik” modeli va O‘zbekistonning aholini “doimiy daromadli qilish”ga qaratilgan strategiyasining nazariy hamda amaliy negizlari ochib berildi.

Qo‘llanilgan ushbu kompleks metodologik yondashuvlar tadqiqot obyekti bo‘lgan ijtimoiy himoya tizimlarini nafaqat tashqi tashkiliy-huquqiy tuzilmasi, balki ichki ijtimoiy-madaniy ildizlari, funksional ahamiyati va jamiyat taraqqiyotidagi uzoq muddatli istiqbollari nuqtai nazaridan yaxlit, shuningdek, tizimli tahlil qilish uchun ishonchli ilmiy poydevor vazifasini o‘tadi.

Muhokama va natijalar. Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarning aholini ijtimoiy himoya qilish tizimlarini qiyosiy-institutsional tahlil qilish natijasida har bir mamlakat o‘zining tarixiy an‘analari, siyosiy tuzumi va iqtisodiy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda farovonlik modellarini shakllantirganligi ma‘lum bo‘ldi. Quyida ushbu modellarning o‘ziga xos xususiyatlari va institutsional mexanizmlari tahlil qilinadi.

Germaniyaning konservativ-korporativ (Bismark) modeli. Germaniya dunyodagi eng qadimiy va tizimli rivojlangan ijtimoiy himoya tizimlaridan biriga ega bo‘lib, ushbu modelning poydevori 1883-yilda kansler Otto fon Bismark tomonidan qabul qilingan Kasallik sug‘urtasi to‘g‘risidagi qonun bilan yaratilgan [9]. G. Esping-Andersen tipologiyasida konservativ-korporativ rejim sifatida tasniflanuvchi mazkur modelning asosiy institutsional xususiyati uning “solidarlik” tamoyiliga hamda bandlikka chambarchas bog‘liqligida namoyon bo‘ladi. Tizim asosan ish beruvchilar va ishchilarning majburiy sug‘urta badallari hisobidan moliyalashtiriladi.

D. Nortning institutsional nazariyasi nuqtai nazaridan yondashganda, Germaniya modeli qat‘iy rasmiy institutlar (qonunchilik bazasi, sug‘urta qoidalari) faoliyatiga tayanadi. Davlat bu yerda bevosita xizmat ko‘rsatuvchi emas, balki tartibga soluvchi “o‘yin qoidalari”ni belgilovchi hakam vazifasini bajaradi [10]. Xizmatlar esa bevosita o‘zini o‘zi boshqaruvchi “kasallanish

fondlari” (Krankenkassen) orqali ko‘rsatiladi. Zamonaviy bosqichda tizim deyarli universallashtirilgan bo‘lib, raqobat va davlat nazoratining uyg‘unlashuvi orqali aholining tibbiy hamda ijtimoiy xavfsizligini yuqori darajada ta‘minlamoqda.

Shvetsiyaning sotsial-demokratik (nordik) modeli. Shvetsiya boshchiligidagi nordik model Esping-Andersen tasnifida sotsial-demokratik rejimning eng yaqqol namunasi hisoblanadi. Uning bosh mezoni – universalizm, ya‘ni barcha fuqarolarning mehnat bozorida mavqeyidan qat‘i nazar ijtimoiy himoyaga ega bo‘lish huquqidir [11]. Germaniya modelidan farqli o‘laroq, Shvetsiyada davlat ijtimoiy xizmatlarni (ta‘lim, sog‘liqni saqlash, qariyalarni parvarishlash) bevosita va bepul ko‘rsatuvchi asosiy institut hisoblanadi va bu xarajatlar yuqori soliqlar hisobidan qoplanadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Shvetsiya ijtimoiy himoyaga shunchaki xarajat emas, balki E. Giddens nazariyasiga mos ravishda “ijtimoiy sarmoya” sifatida qaraydi [12]. Erta bolalik davridan boshlab ta‘lim va parvarishga kiritilgan sarmoyalar kelajakda yuqori malakali, mehnatga layoqatli inson kapitalini shakllantiradi. Qolaversa, jamiyatdagi korrupsiyaning pastligi va davlat organlariga nisbatan “yuqori ijtimoiy ishonch” (trust) norasmiy institut sifatida ushbu modelning barqaror ishlashini ta‘minlovchi muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Janubiy Koreyaning “ishlab chiqaruvchi farovonlik” modeli. Janubiy Koreya tajribasi qashshoqlikni eng qisqa muddatda qisqartirgan “taraqqiyot davlati” (developmental state) fenomenini o‘zida namoyon etadi. Dastlabki bosqichlarda (1960–1990-yillar) davlat barcha resurslarni iqtisodiy o‘rishga qaratib, ijtimoiy siyosatni faqat strategik sanoat ishchilari uchun qo‘llagan bo‘lsa, 1997-yilgi inqirozdan so‘ng “ishlab chiqaruvchi farovonlik” (Productive Welfare) konsepsiyasiga o‘tildi [13].

Ushbu yondashuv A. Senning “Imkoniyatlar nazariyasi”ga to‘la mos keladi. Davlat fuqarolarga shunchaki nafaqa tarqatishni emas, balki kambag‘allikni qisqartirishni bandlikni ta‘minlash, kasb-hunarga o‘qitish va kichik biznesni rag‘batlantirish orqali amalga oshirishni bosh maqsad qilib qo‘ydi [14]. Shuningdek, qishloq hududlarini rivojlantirishga qaratilgan “Saemaul Undong” (Yangi qishloq harakati) dasturi jamoaviy hamjihatlikni rag‘batlantiruvchi muvaffaqiyatli institutsional yechim sifatida tarixga kirdi.

Xitoy Xalq Respublikasining manzilli kambag‘allikka qarshi kurash tajribasi. Xitoy ijtimoiy himoya modeli o‘zining ko‘lami va manzilliligi bilan ajralib turadi. Xususan, 1990-yillardan boshlab joriy etilgan “Dibao” (minimal turmush darajasi kafolatlari) dasturi orqali qashshoqlik chegarasidan past daromadli oilalarga maqsadli naqd pul transfertlari ajratilishi yo‘lga qo‘yildi [15].

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, Xitoyning asosiy yutug'i tizimni ma'muriy jihatdan qat'iy vertikal nazoratga olganligi hamda "manzilli kambag'allikni bartaraf etish" (targeted poverty alleviation) strategiyasida kompleks yondashuvni qo'llaganidir. Qashshoqlikka qarshi kurash faqat ijtimoiy yordam bilan cheklanmay, balki infratuzilmani yaxshilash, sanoat korxonalarini chekka hududlarga ko'chirish hamda ta'lim xizmatlarini kengaytirish bilan sinxron ravishda olib borildi. Natijada 2020-yilga kelib mamlakatda mutlaq kambag'allik to'liq tugatilganligi rasman e'lon qilindi [16].

O'zbekiston ijtimoiy himoya modeli. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy sohadagi islohotlarni qiyosiy tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, mamlakat xorijiy tajribalarning eng maqbul jihatlarini milliy mentalitetga moslashtirgan holda noyob "gibrid" modelni shakllantirmoqda. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada "ijtimoiy davlat" tamoyilining belgilanishi hamda 2023-yilda Ijtimoiy himoya milliy agentligining tashkil etilishi sohada institutsional o'zgarishlarning yangi bosqichini boshlab berdi [17].

O'zbekiston ijtimoiy himoya tizimining boshqalardan farq qiluvchi, uning o'zagini tashkil etuvchi eng muhim elementi – bu mahalla institutidir. Sotsiologik tahlillar shuni ko'rsatadiki, mahalla D. Nort aytib o'tgan rasmiy va norasmiy institutlarning ideal integratsiyasi vazifasini bajaradi. Bir tomondan, mahalla xalqning azaliy an'analari, qo'shnichilik, hashar va o'zaro yordam kabi norasmiy qadriyatlarga tayansa, ikkinchi tomondan "mahalla yettiligi" tizimi orqali ijtimoiy yordamni aniq manzilli va adolatli taqsimlovchi rasmiy davlat institutiga aylangan [18]. Bu mexanizm Germaniyaning "kasallanish fondlari" kabi o'zini o'zi boshqarish xususiyatiga ega bo'lsa-da, qat'iy ijtimoiy nazorat (mahalla ahli kuzatuvi) va an'anaviy axloq me'yorlari bilan to'ldirilganligi bilan ajralib turadi.

Bundan tashqari, O'zbekistonda so'nggi yillarda qabul qilingan "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturi va fuqarolarni "doimiy daromadli qilish" strategiyasi Janubiy Koreyaning "ishlab chiqaruvchi farovonlik" yondashuvi bilan g'oyaviy jihatdan juda yaqin ekanligi namoyon bo'ldi. O'zbekiston hukumati ham ehtiyojmand qatlamni faqat nafaqa oluvchi passiv guruhdan, iqtisodiy faol, hunarmand yoki kichik tadbirkor subyektiga aylantirishni maqsad qilgan [19].

T. I. Zaslavskayaning nazariyasiga asoslanib xulosa qilsak, O'zbekiston ijtimoiy himoya tizimi ayni paytda chuqur ijtimoiy transformatsiya jarayonini boshidan kechirmoqda [20]. "Ijtimoiy himoya yagona reestri"ning raqamlashtirilishi Xitoy tajribasidagi kabi tizim manzilliligini va shaffofligini ta'minlasa, ijtimoiy xodimlar institutining "Inson" markazlari orqali har bir xonadonga kirib borishi Shvetsiyaning bevosita ijtimoiy xizmat ko'rsatish amaliyotini eslatadi.

Umuman olganda, tahlil natijalari tasdiqlaydiki, dunyoda barcha mamlakatlar uchun birdek mos keluvchi yagona universal ijtimoiy himoya modeli mavjud emas. Biroq barqaror institutsional tuzilma, iqtisodiy o'sish va ijtimoiy himoyaning sinxronligi, shuningdek, madaniy va norasmiy muassasalar (mahalla) imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanish O'zbekiston ijtimoiy himoya modelining mustahkam va samarali ishlashini ta'minlovchi hal qiluvchi omillar hisoblanadi.

Xulosa. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning aholini ijtimoiy himoya qilish modellarini qiyosiy hamda institutsional tahlil qilish natijalari shuni tasdiqlaydiki, dunyo amaliyotida barcha davlatlar uchun birdek mos keluvchi yagona "ideal" ijtimoiy himoya modeli mavjud emas. Har bir davlat o'zining ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati, tarixiy taraqqiyot yo'li, demografik holati va milliy-madaniy qadriyatlaridan kelib chiqqan holda o'ziga xos tizimni shakllantirgan. Shu bilan birga, Germaniyaning barqaror ijtimoiy sug'urta mexanizmlari, Shvetsiyaning inson kapitaliga yo'naltirilgan "ijtimoiy sarmoya" yondashuvi, Janubiy Koreyaning iqtisodiy faollikni rag'batlantiruvchi "ishlab chiqaruvchi farovonlik" siyosati va Xitoyning qashshoqlikka qarshi qat'iy manzilli kurash tajribasi shuni ko'rsatadiki, samarali ijtimoiy himoya faqat passiv qayta taqsimlash bilan cheklanmaydi, balki faol ijtimoiy institut sifatida jamiyat yaxlitligi va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi.

O'zbekiston ijtimoiy himoya tizimi ayni paytda chuqur sotsiyetal transformatsiya va modernizatsiya jarayonini boshidan kechirmoqda. Tahlillar natijasida O'zbekiston modeli xorijiy ilg'or tajribalarning ratsional elementlarini va o'ziga xos milliy xususiyatlarni birlashtirgan "gibrid" yondashuv ekanligi ilmiy jihatdan asoslandi. Bu modelning eng muhim va o'zak instituti – mahalladir. Jahon amaliyotida analogi bo'lmagan ushbu institut rasmiy huquqiy normalar va norasmiy axloqiy me'yorlarni (mehr-oqibat, o'zaro yordam, hashar) o'zida mujassam etib, ijtimoiy siyosatning quyi bo'g'inida adolat, manzillilik va jamoaviy nazoratni ta'minlashda beqiyos ahamiyat kasb etmoqda.

Yuqorida olib borilgan qiyosiy-institutsional tadqiqot natijalariga asoslanib, O'zbekiston ijtimoiy himoya tizimini, xususan, aholini doimiy daromad manbai bilan ta'minlashga qaratilgan strategik dasturlar doirasida yanada takomillashtirish uchun quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalar ilgari suriladi:

Birinchidan, Germaniya tajribasidan kelib chiqib, aholining ijtimoiy sug'urta tizimidagi ishtirokini rag'batlantirish va ijtimoiy solidarlik tamoyillarini mustahkamlash lozim. Ijtimoiy himoya tizimining yukini faqat davlat budjeti zimmasida qoldirmasdan, ish beruvchilar va xodimlar o'rtasida ijtimoiy mas'uliyatni adolatli taqsimlash mexanizmlarini kengaytirish hamda o'zini o'zi boshqarish elementlarini joriy etish talab etiladi.

Ikkinchidan, Shvetsiya modeliga tayanib, tizimni qisqa muddatli passiv yordam ko'rsatishdan "ijtimoiy sarmoya" yaratish strategiyasiga o'tkazish maqsadga muvofiq. Bunda e'tiborni ehtiyojmand oilalar farzandlarining sifatli ta'lim olishiga, erta bolalik davridagi rivojlanish dasturlariga, ayollar bandligiga hamda ularning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini oshirishga qaratish ijtimoiy himoyaning uzoq muddatli samaradorligini kafolatlaydi.

Uchinchidan, Janubiy Koreyaning "ishlab chiqaruvchi farovonlik" siyosatidan saboq olgan holda, mahallalarda kambag'allikni qisqartirishni bevosita tarmoqli bandlik, kasb-hunarga o'qitish va kichik tadbirkorlikni rivojlantirish bilan uzviy bog'lash kerak. O'zbekistondagi "mahalla yettiligi" tizimi imkoniyatlaridan to'laqonli foydalanib, jamoaviy hamjihatlikka asoslangan, ehtiyojmand aholini iqtisodiy qaramlikdan qutqaruvchi faol motivatsion dasturlarni amalga oshirish muhimdir.

To'rtinchidan, Xitoy tajribasiga muvofiq, ijtimoiy yordamni taqsimlashda raqamlashtirish va ma'lumotlar integratsiyasi jarayonlarini yakuniga yetkazish, "Ijtimoiy himoya yagona reestri"ni yanada takomillashtirish orqali yordamning mutlaq manzilliligini ta'minlash zarur. Shuningdek, kambag'allikka qarshi kurashda hududlarning infratuzilmasi, ta'lim, sog'liqni saqlash va ekologiya masalalarini yaxlit holda hal etuvchi kompleks institutsional yondashuvni qo'llash lozim.

Umuman olganda, ijtimoiy himoya tizimi Yangi O'zbekistonda inson qadrini ulug'lash, fuqarolarning hayot sifatini tubdan yaxshilash va davlatda ijtimoiy adolat tamoyillarini o'rnatishning eng ta'sirchan institutsional mexanizmiga aylanmog'i darkor. Xorijiy tajribalarning eng ilg'or jihatlari milliy mentalitet va qadriyatlar bilan uyg'unlashtirgan "mahalla"ga suyanuvchi O'zbekiston modeli kelgusida nafaqat mamlakat ichida ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi, balki xalqaro maydonda ham o'ziga xos sotsial taraqqiyot namunasi sifatida ilmiy e'tirof etilishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Esping-Andersen G. The Three Worlds of Welfare Capitalism. – Princeton: Princeton University Press, 1990. – 260 p.
2. North D.C. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990. – 152 p.
3. Parsons T. The Social System. – London: Routledge, 1951. – 575 p.
4. Sen A. Development as Freedom. – New York: Oxford University Press, 1999. – 366 p.

5. Kwon H.J. Economic Development and Poverty Reduction in Korea: Governing Multifunctional Institutions // *Development and Change*. – 2010. – Vol. 41. – №. 1. – P. 67–92.
6. Kim S.K. Developmentalism in Korea // *Social Policy & Administration*. – 2008. – Vol. 42. – №. 5. – P. 487–505.
7. Giddens A. *The Third Way: The Renewal of Social Democracy*. – Cambridge: Polity Press, 1998. – 166 p.
8. Gao Q. *Welfare, Work, and Poverty: Social Assistance in China*. – New York: Oxford University Press, 2017. – 280 p.
9. Bärnighausen T., Sauerborn R. One hundred and eighteen years of the German health insurance system // *Social Science & Medicine*. – 2002. – Vol. 54. – P. 1559–1587.
10. Busse R. et al. Statutory Health Insurance in Germany: A Health System Shaped by 135 Years of Solidarity, Self-Governance, and Competition // *The Lancet*. – 2017. – Vol. 390. – P. 882–897.
11. Social policy and welfare // Nordic cooperation. – URL: <https://www.norden.org>
12. About the Nordic welfare model // Nordic Health and Welfare Statistics. – URL: <https://nhwstat.org>
13. Holliday I. Productivist Welfare Capitalism: Social Policy in East Asia // *Political Studies*. – 2000. – Vol. 48. – P. 706–723.
14. Zaslavskaya T. I. *Sotsiyetalnaya transformatsiya rossiyskogo obshestva*. – M.: Delo, 2003. – 568 s.
15. *Social Protection Key to Poverty Alleviation* // The World Bank. – 2015.
16. *Republic of Korea: Four Decades of Equitable Growth*. – Washington: The World Bank, 2004.
17. *O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (yangi tahriri)*. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023. – 80 b.
18. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni*. PF-82-son. 01.06.2023 y.
19. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni*. PF-21-son. 16.02.2026 y.
20. Abdurahmonov Q.X. *Inson taraqqiyoti: darslik*. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2018. – 320 b.